

XIII. DEMOGRAFIYA

Doimiy aholi soni

Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi soni 2023-yil 1 iyul holatiga 1 986,9 ming kishini tashkil etib, 2023-yil boshidan 10,7 ming kishiga ya’ni 0,5 % ga o‘sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 971,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 48,9 %), qishloq aholisi soni 1015,5 ming kishini (51,1 %) tashkil etdi.

E’tibor bering: 2023 yil yanvar-iyun oylarida

- Aholi soni **10,7 ming kishiga** ko‘paydi.
- Tirik tug‘ilganlar soni **19,5 ming nafarni** tashkil etdi.
- Vafot etganlar soni **4,9 ming nafarni** Tashkil etdi.
- Nikohlar soni **6,4 ming nafarni** tashkil etdi.
- Ajrimlar soni **1,1 ming nafarni** tashki letdi

2023-yilning Yanvar-iyun oylarida

Yilboshida
Doimiy aholi soni
1 976 222 kishi
(2023 yil 1 yanvar holatiga)



19,5 *ming*
bola

Tug‘ilganlar soni




4,9 *ming*
kishi

O‘lganlar soni



4,2 *ming*
kishi

Ko‘chib kelganlar
soni



8,2 *ming*
kishi

Ko‘chib ketganlar
soni

Doimiy aholi soni
1 986 864 kishi
(2023-yilning 1 iyul holatiga)

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni¹⁾ (2023-yilning 1 iyul holatiga, ming kishi)

| | Jami aholi | Shu jumladan: | |
|--------------------------------------|----------------|----------------|-----------------|
| | | shahar aholisi | qishloq aholisi |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1 986,9 | 971,4 | 1 015,5 |
| Nukus sh. | 336,4 | 336,4 | - |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Amudaryo | 210,0 | 54,1 | 155,9 |
| Beruniy | 202,8 | 71,6 | 131,2 |
| Bo‘zatov | 21,9 | 5,5 | 16,4 |
| Qonliko‘l | 53,4 | 13,5 | 39,9 |
| Qorao‘zak | 54,2 | 16,4 | 37,8 |
| Kegeyli | 74,4 | 30,1 | 44,3 |
| Qo‘ng‘irot | 135,2 | 85,4 | 49,8 |
| Mo‘ynoq | 33,5 | 14,8 | 18,7 |
| Nukus | 53,3 | 10,8 | 42,5 |
| Taxiatosh | 76,4 | 54,5 | 21,9 |
| Taxtako‘pir | 38,8 | 16,7 | 22,1 |
| To‘rtko‘l | 226,5 | 85,1 | 141,4 |
| Xo‘jayli | 128,0 | 81,6 | 46,4 |
| Chimboy | 115,2 | 59,1 | 56,1 |
| Shumanay | 57,9 | 15,1 | 42,8 |
| Ellikqal’a | 169,0 | 20,7 | 148,3 |

¹⁾dastlabki ma'lumot

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni
(1 iyul holatiga ming kishi)

| | 2022 y. | 2023 y. | O‘tgan yilga nisbatan o‘shirish sur‘ati % da |
|--------------------------------------|----------------|----------------|--|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 1 962,4 | 1 986,9 | 101,2 |
| Nukus sh. | 332,1 | 336,4 | 101,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Amudaryo | 206,4 | 210,0 | 101,7 |
| Beruniy | 199,0 | 202,8 | 101,9 |
| Bo‘zatov | 21,9 | 21,9 | 100,0 |
| Qorao‘zak | 53,8 | 54,2 | 100,7 |
| Kegeyli | 73,9 | 74,4 | 100,7 |
| Qo‘ng‘irot | 133,7 | 135,2 | 101,1 |
| Qonliko‘l | 52,7 | 53,4 | 101,3 |
| Mo‘ynoq | 33,3 | 33,5 | 100,6 |
| Nukus | 52,3 | 53,3 | 101,9 |
| Taxiatosh | 75,9 | 76,4 | 100,7 |
| Taxtako‘pir | 40,7 | 38,8 | 95,3 |
| To‘rtko‘l | 222,7 | 226,5 | 101,7 |
| Xo‘jayli | 126,4 | 128,0 | 101,3 |
| Chimboy | 114,4 | 115,2 | 100,7 |
| Shumanay | 57,3 | 57,9 | 101,0 |
| Ellikqal‘a | 165,9 | 169,0 | 101,9 |


Yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy harakati

| | <i>kishi</i> | | | <i>har 1000 kishiga nisbatan promille</i> | |
|---------------|----------------|-----------------------------|-------------------------|---|-----------------------------|
| | <i>2022 y.</i> | <i>2023 y.¹⁾</i> | <i>o‘sish, kamayish</i> | <i>2022 y.</i> | <i>2023 y.²⁾</i> |
| Tug‘ilganlar | 18 778 | 19 488 | 710 | 19,4 | 19,8 |
| O‘lganlar | 4 388 | 4 901 | 513 | 4,5 | 5,0 |
| Tabiiy o‘sish | 14 390 | 14 587 | 197 | 14,9 | 14,8 |
| Nikohlar | 7 311 | 6 368 | -943 | 7,5 | 6,5 |
| Ajralishlar | 1 054 | 1 055 | 1 | 1,1 | 1,1 |

Tug‘ilish darajasi. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 19 488 bolani tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (18 778 bola) nisbatan 710 bolaga yoki 3,8 foizga ko‘paydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 19,8 promilleni tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (19,4 promille) nisbatan 0,4 promillega ko‘paydi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari

(yanvar-iyun oylarida)(1000 aholi soniga nisbatan promille)



Tug‘ilish darajasining ko‘payishi Respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko‘rsatkichning yuqori darajasi Nukus tumanida 21,5 dan 23,9 promillega, Xo‘jaylida 19,5 dan 21,7 promillega, Qonliqo‘lda 17,6 dan 19,4 promillega, va Ellikqal‘ada 20,0 dan 21,7 promillega ko‘payishi kuzatilgan.

¹⁾ dastlabki ma‘lumot


²⁾ dastlabki ma‘lumot

Tug‘ilish. 2023-yilning yanvar-iyun oylarida 19,5 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan) mosravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsienti 19,8 promilleni tashkil etdi hamda 2022 yilning mos davriga (19,4 promille) nisbatan 0,4 promillega ko‘payishi kuzatildi.

Ma'lumot uchun


Tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsienti
(2023 yilning yanvar-iyun oylarida)




O‘lim darajasi. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida o‘lganlar soni 4 901 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (4 388 kishi) nisbatan 513 kishiga yoki 11,7 foizga ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 5,0 promilleni tashkil qildi (2022 yilning yanvar-iyun oylarida 4,5 promille).

2023 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan foiz hisobida)



O‘lim koeffitsientlari




O‘lim ko‘rsatkichlarining yuqori darajasi Taxtako‘pirda (4,0 dan 10,4 promillega), Chimboyda (5,0 dan 8,1 promillega), Shumanayda (3,3 dan 5,7 promillega), va Nukus tumanida (5,0 dan 7,3 promillega) ko‘payishi kuzatilgan.

Nikoh. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlari tomonidan 6,4 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish ko‘ffitsienti 6,5 promilleni tashkil etdi.




Tumanlar kesimida tuzilgan nikohlar soni va ko‘ffitsienti
(2023 yilning yanvar-iyun oylari holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)



Nikohdan ajralishlar. 2023 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYo organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish ko‘ffitsienti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Tumanlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2023 yilning yanvar-iyun oylari holatiga)



Nikohlar va ajralishlar. 2023 yilning yanvar-iyun oylari FHDYo organlarida 6 368 ta nikohlar va 1 055 ta ajralishlar ro‘yxatga olingan. Ming aholiga nisbatan 6,5 ta nikoh (2022 yilning tegishli davrida 7,5 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2022 yilning tegishli davrida 1,1 ta) to‘g‘ri kelgan.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni (yanvar-iyun oylarida, birlik)

| | Tuzilgan nikohlar | | Nikohdan ajralishlar | |
|--------------------------------------|-------------------|-----------------------|----------------------|-----------------------|
| | 2022 y. | 2023 y. ²⁾ | 2022 y. | 2023 y. ²⁾ |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 7 311 | 6 368 | 1 054 | 1 055 |
| Nukus sh. | 1 198 | 996 | 225 | 194 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Amudaryo | 838 | 758 | 96 | 83 |
| Beruniy | 847 | 699 | 98 | 118 |
| Bo‘zatov | 78 | 43 | 8 | 12 |
| Qonliko‘l | 146 | 157 | 24 | 25 |
| Qorao‘zak | 185 | 153 | 31 | 37 |
| Kegeyli | 255 | 238 | 32 | 41 |
| Qo‘ng‘irot | 566 | 442 | 79 | 92 |
| Mo‘ynoq | 95 | 78 | 19 | 17 |
| Nukus | 243 | 190 | 36 | 27 |
| Taxiatosh | 275 | 214 | 49 | 40 |
| Taxtako‘pir | 121 | 130 | 32 | 25 |
| To‘rtko‘l | 768 | 824 | 82 | 84 |
| Xo‘jayli | 454 | 401 | 69 | 76 |
| Chimboy | 407 | 311 | 70 | 72 |
| Shumanay | 169 | 132 | 22 | 29 |
| Ellikqal‘a | 666 | 602 | 82 | 83 |

Migratsiya¹ (Ichki va tashqi). Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra 2023 yilning yanvar-iyun oylarida Respublika bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 4 218 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 8 163 kishini tashkil qilgan.

Aholi migratsiyasi (kishi)


| | 2022 yilning yanvar-iyun oylarida | 2023 yilning yanvar-iyun oylarida |
|--------------------|-----------------------------------|-----------------------------------|
| Ko‘chib kelganlar | 4 316 | 4 218 |
| Ko‘chib ketganlar | 4 814 | 8 163 |
| Migratsiya saldosi | -498 | -3 945 |

2023 yilning yanvar-iyun oylarida migratsiya qoldig‘i minus 3 945 kishiga (2022 yilning shu davrida minus 498 kishi) teng bo‘ldi. Eng katta minus qoldiqlar Nukus shahrida (minus 606), Chimboy (minus 426) va Xo‘jayli (minus 411) tumanlarida kuzatilgan.


yanvar-iyun oylarida

Soni, ming kishi

Ko‘chib kelganlar



Ko‘chib ketganlar



¹ shaharvatumanlarhamdahududlararoichkimigratsiyaniqo‘shganholda
² dastlabki ma’lumot





Poytaxtdagi demografik holat



Qoraqalpog‘iston Respublikasi poytaxti Nukus shahrining doimiy aholisi soni 2023 yil 1 iyul holatiga 336,4 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 1,8 ming kishiga yoki 0,5 % ga o‘sgan.

Nukus shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan promille)

| 2022 yilning yanvar-iyun oylarida | | 2023 yilning yanvar-iyun oylarida |
|--------------------------------------|---|--------------------------------------|
| Tug‘ilish | | |
| 19,3 |   | 19,6 |

2023 yilning yanvar-iyun oylarida 3,3 ming bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda tug‘ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 19,6 promilleni tashkil etdi (2022 yilning mos davrida 19,3 promille bo‘lgan).

FXDYo organlarida 2023 yilning yanvar-iyun oylarida 996 ta nikoh va 194 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan.

Shuningdek, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 6,0 promilleni tashkil qilib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega kamaygan (2022 yilning mos davrida 7,3 promille bo‘lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 1,2 promilleni tashkil etib, 2022 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaydi. 2022 yilning mos davrida 1,4 promille bo‘lgan.

Nukus shahrida tuzilgan nikoh va ajrim (yanvar-iyun holatiga 1000 aholiga nisbatan promille)

